

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta mahsus ta’lim vazirligi

Toshkent Kimyo-Texnologiya instituti

“Kasb ta’limi” kafedrasи

**“Mutaxassislik fanlarini o‘qitish va ishlab chiqarish
ta’limi metodikasi”**

fanidan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Umumiy va noorganik kimyo” fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish.

Bajardi: SHamsiddinov N N

Raxbar: Kangliev.SH.T.

Toshkent - 2015

**O'ZBEKISTON RESLUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

"KASB TA'LIMI" KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»
Kasb ta'lifi kafedrasi mudiri:
dots. Kangliev SH.T.
«__» May 2015y.

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOLSHIRIQ

Talaba_____

1. Bitiruv ishi mavzusi: _____

Institut rektorining / - sonli yil buyrug'i asosida tasdiqlandi.

2. Malakaviy bitiruv ishini tolshirish muddati: may 2015 yil

3. Malakaviy bitiruv ishiga doir ko'rsatmalar

4. Xisoblash tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati):

1. Kirish. 2. Mutaxassislik fanini o'qitishning maqsad va vazifalari. 3. Mutaxassislik fanini mazmun mohiyati 3 ta asosiy mavzu bo'yicha. 4. O'qitish texnologiyasining nazariy asoslari. 5. Mutaxassislik fani bo'yicha o'quv maqsadlarini ishlab chiqish. 6. Fan doirasida o'tiladigan 1ta asosiy mashg'ulotning texnologik xaritasi. 7. Mutaxassislik fanini o'qitish metodikasi. 8. Mutaxassislik fanidan talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash 9 Xulosa. 10. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 11. Ilovalar

5. Grafik ishlari ro'yxati: (slayd tarzidagi ko'rgazmali materiallar nomi aniq ko'rsatiladi)

1. Maxsus fanlar to'g'risida ma'lumotlar. 2. O'quv maqsadlarini belgilash. 3. Dars o'tishning texnologik xaritasi. 4. Yaratilgan zamonaviy ledagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ishlannalar.

6. Malakaviy bitiruv ishini bajarish rejasi

Nº	Malakaviy bitiruv ishini bajarish bosqichlari	Maslaxatchining F.I.O.	Bajarish muddati	Bajarilganligi xaqida imzo
1	Texnologik qism			
2	Ledagogik qism			

Tolshiriq berilgan sana “ ” may 2015 y. _____ Imzo

Malakaviy bitiruv ishni raxbari _____ F.I.O.

Tolshiriqni bajarishga oldim _____ “ ” may 2015 y. _____ imzo

**O'ZBEKISTON RESLUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Kasb ta'limi” kafedrasi

TUSHUNTIRISH -IZOH YOZUVI

Bitiruv ishi mavzusi _____

Kafedra mudiri: _____
(imzo) _____ (sana) _____
dots.Kangliev SH.T.
(familiya, ismi, sharifi)

Bitiruv
ishi rahbari _____
(imzo) _____ (sana) _____
(familiya, ismi, sharifi)

Texnologik qism _____
(imzo) _____ (sana) _____
(familiya, ismi, sharifi)

Ledagogik qism _____
(imzo) _____ (sana) _____
(familiya, ismi, sharifi)

Bitiruv ishini
bajaruvchi: _____
(imzo) _____ (sana) _____
(familiya, ismi, sharifi)

Toshkent – 2015

Mundarija

1.Kirish.....
2“Umumiy va noorganik kimyo” fanining o‘qitishning maqsad va vazifalari.....
3.“Umumiy va noorganik kimyo” fanining mazmun va moxiyati.....
4. Interfaol metodlarning nazariy asoslari.
5. “Umumiy va noorganik kimyo” fani bo‘yicha o‘quv maqsadlarini ishlab chiqish.....
6. “Umumiy va noorganik kimyo” fanidan “Noorganik kimyo va ekologiya” mavzusi bo‘yicha ma’ruza darsining texnologik xaritasi.....
7.“Umumiy va noorganik kimyo” fanining o‘qitish metodikasi.....
8. “Umumiy va noorganik kimyo” fanidan talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarini baxolash.....
9.Xulosa.....
10.Adabiyotlar ro‘yxati.....
11.Ilovalar

1.Kirish

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’kidlanganidek, ta’limning yangi tizimi va mazmunini shakllantirish uchun «ilg‘or pedagogik texnologiyalarni yaratish» talab etiladi. Bu muxim vazifaning ijobiy hal etilishi ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondoshuvni taqazo etadi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni izlab topish, bu borada eng maqbul omil deb topilgan yangi pedagogik texnologiyalarni o‘quv yurti yoki o‘quv muassasasi faoliyatlariga olib borish maqadga muvofiq deb xisoblanmoqda.

Oliy va o‘rta mahsus ta’lim tizimida ta’lim jarayonini rivojlantirish va yanada takomillashtirish borasida, unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish muhim axamiyat kasb etadi. Talimga axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini tadbiq qilish va foydalanishdan asosiy maqsad, talim jarayonining barcha ishtirokchilari, yani talim oluvchi va beruvchilar uchun keng imkoniyatlarni yaratib berishdan iboratdir.

Interfaol usullarning maqsadi faqat bilim berish bilan emas, balki tinglovchilarni berilgan topshiriqlarga javobni mustaqil topish malakalariga odatlantirish bilan bog‘liqdir. Bu usullar masalalar va o‘zaro munosabat turlarini keng hajmini qamrab oladi hamda tinglovchilarning asosiy ta’lim manbai hisoblanadi. SHu tariqa interfaol o‘qitish, intellektual mustaqillik va barcha tinglovchilar uchun zarur bo‘lgan malakalarni aks ettiruvchi bilim olish mahoratini rivojlantiradi.

SHunday ekan, zamonaviy o‘qituvchi, o‘z mutaxassisligidan qat’iy nazar bilimdon, o‘qitishning interfaol usullarini puxta egallagan va ularni ta’lim jarayonida qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak.

SHunday qilib, yuqoridaagi talablar hamda interfaol usullar asosida tashkil etilgan mashg‘ulot davomida tinglovchilarning faolligi oshadi, mustaqil fikrashi, ijodiy tafakkuri kuchayadi, muammolar echimining eng maqbulini tanlash faoliyati mustahkamlanadi, ayniqsa ilm olishga bo‘lgan intilishi, ularni o‘zлari ishlaydigan ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqishi yanada oshadi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar elementlaridan bo‘lgan “Aqliy xujum”, “Insert”, “Klaster”, “Bumerant”, “Charxpak”, “Nima uchun”, “FSMU”, “Rezyume” kabi interfaol usullardan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

–biron bir mavzu yuzasidan fikr va g‘oyalar xech qanday cheklanmagan xolda talabalar tomonidan aytildi va o‘qituvchi tomonidan qabul qilinadi;

–baxs- munozara yuritish natijasida biron bir muammoning optimal echimi topiladi;

–mavjud bilimlar bir tizimga keltiriladi;

–talabalarning bilish jarayonlari faollashadi;

–o‘quv materiali analiz va sintez qilinadi;

–fanga bo‘lgan qiziqish ortadi;

–talabalar guruxda(xamkorlikda) ishlashni o‘rganadilar (Boshqalarning fikrini xurmat qilish, o‘z g‘oyalarini ximoya qilish va x.k.)

YUqoridagilarga tayangan xolda, bitiruv malakaviy ishining mavzusini “Umumiy va noorganik kimyo” fanini o‘qitishda intefaol usullardan foydalanish deb tanlab oldim.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi

“Umumiy va noorganik kimyo” fanini o‘qitishda intefaol usullardan foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi

1. “Umumiy va noorganik kimyo” faniga oid adabiyotlarni o‘rganish va fanning mazmunini aniqlab , fanning tanlab olingan mavzularini chuqr o‘rganish.
2. Fanning tanlab olingan mavzularini o‘qitishda interfaol usularni qo‘llash.
3. Mavzularni o‘qitishda B.Bluu taksonomiyasi asosida o‘quv maqsadlarini aniqlash.
4. Tanlab olingan “Davriy qonun va uning zamonaviy talqini” mavzusini o‘qitish bo‘yicha texnologik xaritasini yaratish.
5. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi bo‘yicha qo‘yilgan maqsad yo‘lidagi izlanishlar , olingan natijalar yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi.

1. Fanning tanlab olingan mavzulari xozirga qadar ananaviy usulda o‘rganilib kelingan va bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida yangi o‘qitish usularidan foydalangan xolda o‘qitish tavsiya etilayalti.
2. Tanlangan mavzular bo‘yicha o‘quv maqsadlari, ishlanmalar va o‘qitish metodikasi birinchi marta amalga oshirilayalti.

3. Tanlangan mavzular uchun nazorat savollari tuzildi hamda o‘quv maqsadlari aniqlandi va interfaol usular yordamida o‘qitishning samaradorligi ko‘rsatib beriladi.

2. “Umumiy va noorganik kimyo “ fanining o‘qitishning maqsadi va vazifalari , o‘qitish xususiyatlari.

2.1.“Umumiy va noorganik kimyo” fanining o‘qitishning maqsadi va vazifalari

Fanning o‘qitishning maqsadi:

Talabalarga kimyoning asosiy stexiometrik qonunlari, atom tuzilishi, kimyoviy bog‘lanish termokimyo, kimyoviy kinetika va muvozanat, poelektrolit va elektrolit eritmalar, brikmalar va elementlarning fizik kimyoviy xossalariini sistematik ravishda o‘rgatish xaqidagi bilimlar berishdan iborat.

Fanning vazifalari:

Kimyoning nazariy asoslari, qonuniyatlar, atom va molekulalarning tuzilishi, eritmalar va ularning xossalari, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, elektrokimyoviy jarayonlar, koordinatsion brikmalar xossalari bo‘yicha tushunchalar berish va ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat.

“Umumiy va noorganik kimyo” fanini o‘zlashtirgan talabalarning bilimi, ko‘nikmasi va malakalariga qo‘yiladigan talablar.

Bilim:

- Kimyoning asosiy stexometrik qonunlarini bilib oladi;
- O ddiy va murakkab moddalar, allotropiya, izomeriya tushunchalariga ega bo‘ladi;
- Atrof muxitning sun’iy va tabiiy ifloslanish omillarini biladi;
- Atrof muxitni suv manbalarini tozalash va tabiatni muxofaza qilish to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘ladi;
- O‘zR atrof muxitni muxofazasida ko‘rilayotgan chora va tadbirlar to‘g‘risidagi tushunchalarga ega bo‘ladi;

Ko‘nikma.

- Termokimyoviy jarayonlar asosida reaksiyalarning issiqlik» effektlarini aniklay oladi;
- Oksidapanish-qaytarilish reaksiya tenglamalarini tuza oladi;
- Avtomobil va snoatda ruda yoqishdan chiqadigan zararsizlantirish yo‘llarini topa oladi;
- Oqava suvlardagi iflos qo‘shimchalarni aniqlash usullarini qo‘llay oladi;
- Fazoda ro‘y berayotgan reaksiyalarni asoslay oladi.

Malaka.

- Olgan nazariy bilimlarini texnologik jarayonlarga qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- Turli xil konsetrasiyalı eritmalarini amalda tayyorlab bera oladi;

- Atrof muxitni va tabiatni muxofaza qilish omillariga baho bera oladi;
- CHiqindisiz texnologiyani joriy qilishning ahamiyatiga baho bera oladi;
- CHiqindisiz texnologiya kashf etish ustida olib borilayotgan ishlarning natijalari va istiqbollariga baho bera oladi.

Fanning o‘quv rejasidagi fanlar bilan bog‘liqligi

Umumiy va noorganik kimyo kursi ma’lum fizik, kimyoviy, matematik nazariyalarga asoslanadi. SHuning uchun mazkur fanni o‘zlashtirishda oliy matematika, fizika, analitik va organik kimyo, fizik va kolloid kimyo fanlari bilan xamkorlikda urganish katta ahamiyatga ega. SHu bois xam mazku r fanning nazariy, kolaversa amaliy kismlarini puxta o‘rganish eng muxim vazifalardan iborat.

Fundamental fanlarni chukur o‘zlashtirib olgan talaba yukori kurslarda o‘z ixtisosligi fanlariga to‘la va ijodiy qaraydi, fikr doirasini keng qamrovli hamda izlanuvchan bulishiga olib keladi.

FANNI O`QITISHDA PeDAGOGIK VA AXBOROT TeXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ushbu fan kursini o‘rganishda, laboratoriya ishlari natijalarini umumlashtirishda, hamda elementlar xossalariini ma’lum sistemada o‘rganishda komlyuter texnikasidan, elektron versiya usulidan, nazariy grafik tarkatma materiallaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Bunda o‘qitishning turli yo‘llari, jumladan talabalar bilimini nazorat qilishda reyting usulini ko‘llash ijobiy natijalarga olib kelayotganini nazarda tutib ish yuritish foydadan xoli emas

*Fandan o‘tiladigan mavzular va ular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga
ajratilgan soatlarning taqsimoti.*

№	Fannnng bo‘limi va mavzusi, ma’ruza mazmuni	Soatlar			
		Jami	Ma’ruza	Laboratoriya	Amaliy
1.	Laboratoriya ishlarini bajarishda ishlataladigan asboblar buyncha umumiy kursatmalar va texnika			2	2

2.	I- kiem. Umumiy kimyo. Kirish. Kimyoning asosiy stexiometrik sonunlari. Kiemviy tushunchalari birikmalarning va		4		
3.	Kimyoviy elementlar va oddnn moddalar. Noorganik birikmalarning xozirgi zamон nomenklaturasi. Atom		2	4	2
4.	Kimyoviy ekvivalent, moddalar massasining sakdanish, karrali va xajmiy nisbatlar		4	4	2
5.	Atom tuzilishi va kimyoviy botanish. ATOM tuzilishi x.akidagi		4		2
6.	Kvant mexanikasi.		2		
7.	D. I. Mendeleevning davriy krnuni elementlar sistemasni.		2		2
8.	Kimyoviy botanish va molekulalarning tuzilishi.		4		2
9.	Ionboglanish.		2		
10.	Termodynamika asoslari va termokimyo		4	2	2
11.	Kimyo'viy kinetika.		4	2	
12.	Kimeviy muvoz anat.		2		2
13.	Dislers sistema. Eritmalar va ul arning xossalari.		2		2
14.	Eritmalarining umumiy xo ee alari. Raul konunlari		4	4	2
15.	Elektrolitik dissotsiyalanish rN gidroliz jaraenlari		4	4	4
16.	Oksidlanish-kaytarilish jarayo'nлari. Oksidlanish-saytarilish reaksiyalari.		4	4	2
17.	Metallarning umumiy xo ee alari. Metallarning elektrod lotensiali va unta tasir etuvchi		4		
18.	Galvanik sxema yasash. Elektroliz jarayonlari. Metallarning korroziysi.		2	2	2
19.	Kompleks birikmalar va ular da ESH'.Kviy boglanish tabiatini.		4	2	2
20.	II- kiem. No organik kimyo.5-zlementlar kimyosi. Davriy sistemaning birinchi asosiy guruxcha zlementlarining umumiy xarakteristikasi.		3		2

21	Davriy sistemaning ikkinchi asosiy guruxchasi elementlarining umumiy xarakteristikasi. Suvning kattikligi.		3		2
22	r- elementlar kimyo'si. Davriy sistemaning uchinchi asosiy guruxcha elementlarining umumiy xar akteristikasi.		4	2	1
23	Davriy sistemaning turtinchi asosiy guruxcha elementlarining umumiy xarakteristikasi. Uglerod va		4	2	1
24	Davriy sistemaning beshinchi asosiy guruxcha elementlarining umumiy		6	2	2
25	Davriy sistemaning oltinchi asosiy guruxcha elementlarining umumiy xarakteristikasi. Kislorod va uning birikmalarini		2		2
26	Oltkgaugurt va uning xossalari. Selen guruxchasi.		4		2
27	Davriy sistemaning etgikchi asosiy guruxcha elementlarining umumiy xar		4		2
28	Davriy sistemaning sakkizinchasi asosiy guruxcha elementlarining umumiy xar aktiristikasi. Inert gazlar		2		2
29	6- zlementlar kimyo si. Xrom guruxchasi elementlari. Marganets guruxchasi		4		4
30	Temir va llatina oilasi zlementlari.		4		2
31	Mis guruxchasi zlementlari.		2		2
32	Rux. guruxchasi zlementlari.		2		1
33	Skandiy guruxchasi zlementlari. Titan guruxchasi zlementlari.		2		

34	Anorganik kimyo va ekologiya. Uzbekiston Reslublikasi kime sanoatini rivojlantirishda ilmiy tadaitsotlari. Kimegar mashxur olimlari va ularning ilmiy izlanishlari.		2		2
Jami		216	108	36	57

3."UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO" FANINING MAZMUN VA MOHIYATI.

3.1."Noorganik kimyo va ekologiya" mavzusinig mazmun va mohiyati

Mavzu rejasi

1. Noorganik kimyo fanining ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilishdagi roli.


2. Ekologik muammolarni bartaraf qilishda O'zR Xukumati qabul qilgan qarorlar.

Ilgarigi boblarda moddaning fizik va kimyoviy xossalari izohlovchi qonunlar bilan tanishdik. Atrof-muhitni yaxshiroq o'rganish maqsadida ana shu qonun va qonuniyatlarni amalda qo'llash kerak bo'ladi. Nima sababdan atrof-muhit ifloslanadi, uni qanday qilib toza tutishimiz va kelajak avlodlarga musaffo holda etkazishimiz uchun nimalar qilishimiz kerak, degan muammo kelib chiqayapti.

Atmosfera va atrof-muhitga tarqalayotgan moddalar avvaliga oddiy bo'lib ko'rinsada, aslida ular bir-biriga qo'shilib, quyosh nuri, bosim, temperatura, suv va shu kabi boshqa faktorlar ta'sirida katta o'zgarishlarga sabab bo'layotgani ma'lum. Korxonalardan ajralib, suvgaga yoki tuproqqa qo'shilib atrof-muhitni turli chiqindilar bilan "boyitayotgan" mahsulotlar endilikda atmosferani ifloslantirib bormoqda. Buning oldini olish tez orada hal etilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan bo'lib qoldi. Ushbu bobda ana shular haqida fikr yuritiladi.

Atmosfera murakkab sistema bo'lib, dengiz sathida havoning 99% azot bilan kislorodga to'g'ri keladi (qolganlari CO₂ bilan asl gazlarga to'g'ri keladi).

Atmosferaning tarkibiy nisbiy molekulyar massasi 90 km balandlikkacha o'zgarmay qoladi, undan yuqorida esa tez o'zgaradi. Masalan, dengiz sathida miqdori juda kam bo'lган geliy 500-1000 km balandlikda atmosferaning asosiy komponentiga aylanadi. Atmosfera tarkibining balandlik bo'yicha o'zgarishi kimyoviy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi. Quyoshning elektromagnit nurlanishi orqasida vujudga keladigan energiyaning yutilishi orqasida atom va molekulalar ionlanadi hamda dissotsilanadi. Bunda kislorod molekulalari quyidagi holda atomlarga dissotsilanadi:





Bunday jarayonning davom etishi natijasida atmosfera tarkibining o'rtacha nisbiy molekulyar massasi pasayadi. CHunonchi, molekulyar kislorodniki Z₂ ga, atomar kislorodniki 16 ga teng. Tarkibida atomar va molekulyar holdagi kislorodi bo'lган gaz aralagshmasining molekulyar massasi 16-Z₂ orasida bo'lishi tabiiy. Atmosferada suvning fotodissotsialanishi ham qiziqish tug'diradi. Er yuzasidan atmosferaning yuqori qavatlariga ko'tariluvchi suv miqdori unchalik ko'p emas. Ammo suvning atmosferadagi fotodissotsilanishi erda kislorodli atmosferaning vujudga kelishiga sabab bo'lган, degan fikrlar mavjud.

Atmosferada juda ko'p kimyoviy reaksiyalar amalga oshadi. Bulardan elektron ko'chish bilan boradigan reaksiyalar kimyoning barcha tarmoqlari bilan bir qatorda


biokimyo uchun ham muhimdir. Turli xil birikmalarning hosil bo'lishi, parchalanishi, almashinuv reaksiyalari, momaqaldiroq paytida amalga oshadigan ozon O₃ hosil bo'lish reaksiyalari inson va jonivorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Almashinuv reaksiyalariga misol qilib quyidagi jarayonni ko'rsatish mumkin.



YUqoridagi reaksiyalar ekzotermik reaksiyalar bo'lganligi tufayli osonlik bilan amalga oshadi. Atmosferaning yuqori qismida NO konsentratsiyasi milliondan bir qismni tashkil qilishiga qaramay NO⁺ atmosferaning o'sha qismida eng ko'p tarqalgan ion hisoblanadi.

Mezosfera bilan stratosferada hosil bo'luvchi atomar kislorod kislorod molekulasi bilan birikib, ozon (O₃) ni hosil qiladi:




Ozon molekulasi qo'shimcha energiyaga ega bo'ladi. Uning atomar va molekulyar kisloroddan hosil bo'lishi energiyaning ajralishi bilan boradi (105 kDJ/mol). Ozon o'zidagi ortiqcha energiyani yo'qotishga intiladi. U quyosh nurini yurib, atomar va molekulyar kislorodga parchalana oladi. Buning uchun zarur bo'lgan energiyani to'lqinuzunligi 1140 nm dan ortiq bo'limgan fotonlar etkazib beradi. Ozon molekulasining to'lqin uzunligi 200 dan Z10 nm fotonlarni yutishi insoniyat uchun katta ahamiyatga ega. Agar stratosferada ozon qavati bo'limganda, u qisqa to'lqinli katta energiya fotonlar erga o'tib ketar edi. "Ozon" qalqoni bo'limganida edi, ana shu katta energiyali fotonlar o'simlik, hayvonot dunyosi va insoniyatni ya'ni, Erda hayotni yo'q qilgan bo'lur edi.



Ozonning fotoparchalanishi uning hosil bo'lish reaksiyasining aksidir. Bu ozonning hosil bo'lishiva parchalanishini siklik protsessga aylantirib turadi. Mana shu sikl orqasida Quyoshning ultrabinafsha nurlanishi issiqlik energiyasiga aylanadi.

Ozon qisqa to'lqinli ultrabinafsha nurlarni ($\lambda=200-280\text{nm}$) to'la ravishda, to'lqin uzunligi 280-320 nm bo'lgan ultrabinafsha nurlarning esa 90 foizini yutadi. Ozon miqdori stratosferada uncha ko'p bo'lishiga qaramay, uning ultrabinafsha kurlarini yutish qobiliyatni juda yuqoridir.

Stratosferada o'zga gazlar bo'limgan holda ozon hosil bo'lishi va parchalanish mexanizmini quyidagicha ifodalash mumkin:




Stratosferada ushbu reaksiyalar muvozanatda bo'ladi. Lekin o'zga gazlar yoki radikallar mavjud bo'lqanda ozon parchalanadi:



bu erda X = H, OH, NOx, Cl, Br

Atmosferada ko'rsatilgan radikallar oddiy sharoitda o'zga komponentlar bilan birikadi va stratosferagacha etib bormaydi.

Atmosferada oltingugurt birikmalari ham uchraydi. Ular vulkanik gazlardan ajraladi, organik birikmalarning bakteriyalar ta'sirida chirishidan hosil bo'ladi. Okeanlarda ham oltingugurt dioksidi vujudga keladi. Tabiiy suratda atmosferada hosil bo'lувчи oltingugurt birikmalari juda oz bo'lганligi sababli ularni hisobga olmasa ham bo'ladi. Ammo katta shahar va sanoat rayonlarida oltingugurt birikmalari miqdorining ko'payib ketishi xavfli vaziyatni tug'dirishi mumkin. Havoni buzuvchi gazlardan bo'lган oltingugurt dioksidi (SO_2) o'tkir hidli sassiq va zararli moddalardan biridir. Oltingugurtli rudalar kuydirilganda (metal sulfidi oksidlanadi) shu joyda SO_2 miqdori ko'payib ketadi:




AQSHda oltingugurtli rudalar eritilganda ajralib chiqayotgan ning 8% havoga ajraladi. Ajralayotgan SO_2 ning 80% ko'mir bilan neft yonishi hisobiga chiqadi. AQSH ko'mirlarida 8% gacha (massasi bo'yicha) oltingugurt borligi ishni murakkablashtiradi. SHu sababli AQSH da atmosferaga yiliga 30 mln. SO_2 chiqarib tashlanmoqda. Bu modda katta moddiy zarar keltirishi bilan bir qatorda inson sog'-


lig'iga zarar etkazmoqda. SO_2 gazi SO_3 gacha oksidlanganda uning zarari yanada ortadi. Atmosferadagi mayda zarrachalar katalizator rolini o'ynaganda bu protsess yanada tezlashadi. Hosil bo'lган SO_3 suv tomchilari bilan birikib, sulfat kislota hosil qiladi:



Skandinaviya va SHimoliy Evropa mamlakatlarida "nordon yomg'ir"ning ko'p yog'ishi odamlarga ma'lum. YOmg'irda sulfat kislotaning borligi qo'llardagi balilarning kamayib ketishi va umuman ekologik zanjirning buzilishiga olib keldi. AQSH da yog'uvchi bunday nordon yomg'irlar ko'pgina qo'llarni ishdan chiqarmoqda, metall inshootlarni korroziyaga uchratyapti, xiyobon va maydonlardagi san'at asarlarini (hatto marmardan yasalgan haykallarni ham) ishdan chiqarmoqda. ammiak bor erlarda esa kislota - asos reaksiyasi amalga oshib, ammoniy gidrosulfat $\text{NH}_4(\text{HSO}_4)$ yoki ammoniy sulfat $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ hosil qiladi:




(suqli yoki qattiq)



Ko'pgina sanoat rayonlari osmonini qoplab oluvchi quyuq tutun havoda yuqorida aytilgan yo'l orqali tarqalgan ammoniy sulfatdir.


Atmosferadagi SO_2 ni yo'qotishga bag'ishlab ishlangan va talablarga javob beradigan texnologik jarayonlarning yo'qligi achinarli bir holdir. Bu hozirgi davming kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biri ekanligini esdan chiqarmasligimiz lozim.

Azot oksidlarining atmosfera kimyosi **fotokimyoviy smog** (tabiiy tumanning sanoat chiqindi gazlari, isitish qurilmalari va boshqalardan chiquvchi aralashmalarining qo'shuvidan hosil bo'lган sistema) bilan bog'liqligi diqqatga sazovor. Bu termin AQSHdagi Los-Anjelos shahri tufayli paydo bo'ldi. Hozir bunday yoqimsiz to'x qolgan havo massalariga ega katta shaharlar soni tobora ko'payib borayotganligi ma'lum. Avtomobillar azot monoksidi ajratib, atmosferani buzadi. Hozir AQSHda avtomobil 1 miln yurganda atmosferaga 1 grammga yaqin NO yoki NO_2 chiqarishi aniqlangan 393 nm ga teng to'lqinli fotonlar ta'sirida NO_2 NO va O ga parchalanadi:



Hosil bo'lган atomar kislород turli reaksiyalarga, shu jumladan O_2

bilan reaksiyaga kirishib ozon hosil qiladi. Ozon NO ni NO₂ gacha oksidlaydi:



Hosil bo'lgan NO₂ va O₂ lar avtomobil dvigateli yonishidan hosil bo'lувчи ammiak, CO, CH₄, C₂H₄ olefinlar, atsetilen, aldegidlar va SO₂ lar bilan reaksiyaga kirishib ko'p xil moddalar hosil qiladi. Bular smogning kuchayishiga olib keladi. Uning miqdori shaharlarda kunning ikkinchi yarmida, ayniqsa, kechqurun ko'payishi tajribalarda tekshirilgan, bu insonning ko'ziga har kuni ko'rinish turgan xavfli hodisadir.

Avtomobillardan ajralayotgan gazlar tarkibida uglerod monoksidi ham bor. U papiros tutunida ham anchagina miqdorda uchraydi. Bu modda inson qonidagi gemoglobin bilan barqaror kompleks hosil qilganligi sababli xavf tug'diradi. Atmosferada SO miqdori ko'paygan sari qonning organizmga kislorod etkazib berish xususiyati kamayib boradi. Bu insonning aktiv mehnat faoliyatini susaytiradi, uni lanj qiladi, mehnat unumdorligini pasaytiradi va shu kabi boshqa qator afsuslanarli hodisalarini keltirib chiqaradi.

Uglerod dioksidi bilan suv bug'i infraqizil nurlarni yutuvchi atmosfera komponentlari hisoblanadi. SHu sababli atmosferadagi uglerod dioksidning miqdori butun planetaning ob-havo sharoitiga ta'sir etadi. Keyingi o'n yilliklarda ko'mir, neft tabiiy gaz va boshqa mineral qazilma boyliklarining ko'plab yondirilishi hisobiga atmosferadagi CO₂ miqdori birmuncha ortib ketganligi sezilmoqda.

YOqilg'ilarning shunday tezlikda yondirilib borishida uncha ko'p o'tmay planetamiz ob-havosida o'zgarishlar ro'y berishi turgan gap, degan fikrlar o'rta ga tashlanmoqda.

Dunyodagi millionlab avtomobillardan ajralayotgan gazlar miqdorini kamaytirish bilan bu muammolarni birmuncha hal qilish mumkin, degan fikrlar o'rta ga tashlanmoqda. Ammo bu choralarining ko'riliishi juda sekinlik bilan borayotganligi kishilarni tashvishga solmog'i lozimligi ko'rinish turibdi. **Oqava suvlarni tozalash yo'llari.** Akademik I.V.Petryanov tabiatning buyuk in'omlaridan biri bo'lgan suvni ulug'lab, o'zining unga bag'ishlangan maxsus kitobini "Dunyodagi eng ajoyib modda" deb atagani bejiz emas, albatta. Olim suv va tabiat boyliklarini toza tutish, ularidan ratsional foydalanish va kelajak avlodlar uchun saqlash sohasida katta ishlar qilayotgan yirik mutaxassislardandir. U suvni e'zozlash zarurligini, inson va butun jonzot hayoti suv bilan ekanligini ta'kidlaydi. Ammo dunyoning hamma erida ham suvga shunday e'tibor bilan qaralyaptimi, u

e'zozlanyaptimi? Afsuski, unday emas. Hozirgi vaqtga kelib, "oqava suvlar" termini ko'p korxona va sanoat birlashmalarida tez-tez tilga olinadigan bo'lib qoldi. Buning boisi korxonalardan oqib chiqayotgan suvlar ifloslanishi bilan bir qatorda o'zida ko'pgina qimmatli komponentlarni oqizib ketmoqda. Oqava suvlar tarkibidagi zaharli va zararli moddalar dunyo okeanini buzayapti. Suvlardagi kislota, ishqor, qo'rg'oshin, mis, misob, molibden, rux va shu kabi boshqa metallar-chi? Yiliga korxonalar hisobidan suvga oqib ketayotgan ming-ming tonnalab qimmatli metallar bilan bir qatorda tabiat in'omi - suvning tarkibi ham o'zgarib borayotganligini hisobga olmoqzarur.

Mamlakatimizda bu masalalarga katta ahamiyat berilmoqda. Kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab, er va er osti boyliklarini, suv resurslarini, o'simliklar va hayvonot dunyosini qo'riqlash va ulardan ilmiy asosda oqilona foydalanish, havo va suvni toza saqlash, tabiiy boyliklarni uzliksiz ko'paytirib borishni ta'minlash va insonning atrof-muhitini yaxshilash uchun zarur soralar ko'riliishi talab qilinmoqda. Mamlakatimizning yirik kimyo korxonalarida oqava suvlardan tuz, metall, kislota, ishqor va boshqa moddalarni tutib qoluvchi fltrlar, katalitik qurilmalar, yondirish pechlari ishga tushirildi. Metanol va glikollarni ushlab qoluvchi qurilmalar ishga tushishi bilan suv havzalari zaharli moddalar ta'siridan xalos bo'ldi.

Kimyo sanoatining suvni ko'p ishlatishi ma'lum. SHu sababli keyingi yillarda suv kamroq ishlatuvchi texnologik jarayonlarni ishga solish oqava sularni toza tutgan holda ulardan ko'p sikllarda foydalanish yo'llari ishlab chiqildi. Oqava suvlar alohida mexanik va kimyoviy tozalashdan o'rib, biologik inshootlarga va so'ngra adsorbsion tozalash ukolonnalariga yuboriladi. Oqava suvlardan osh tuzi, sement shixtasi komponentlari va boshqa mahsulotlar olinmoqda. Bu ishlar korxonaga yiliga uch mln so'm iqtisodiy samara berayapti. O'n ikkinchi besh yillikda mamlakatimizda oqava suvlarni tozalash maqsadida umumiyl quvvati sutkasiga bir mln m² dan ortiq inshootlarishga tushiriladi, suv aylantiruvchi sistemalar quvvati sutkasiga

1,2-1,Z mln m² ni tashkil etadi. Ana shu besh yillikda 150 dan ortiq texnologik jarayonlar ishga solinadi. Teskari osmos va ultrafiltratsiya prinsipida ishlab, oqava suvlardan muhim modda va tuzlarni ajratuvchi polimer membranalaridan foydalaniladi. Bunday membranalar oqava suvlarni organik va noorganik aralashmalarining eng ozgina miqdorini ham samarali tozalaydi, patogen mikroflorani ham suv tarkibida qoldirmaydi.

Oqava suvlarni kalsiy va magniy karbonatlar, alyuminiy va temir gidroksidlar yordamida tozalash yo'llaridan sanoat miqyosida foydalanilmoqda. Bu borada kremniy (IV)- oksid, alyuminiy oksid va sementlar ham keng ishlatilmoqda. SHo'r suvlardan chuchuk suv olishda oqava suvlardan turli metallarni ajratib olishda va boshqa maqsadlarda ionitlar ham qo'llanilmoqda. Dengiz va daryo suvlarini neftdan, moy va shu kabi boshqa mahsulotlardan tozalashda ham yuqorida aytilgan usullardan foydalaniladi.

Kimyo korxonalaridan osmonga ko'tariladigan gazlar tarkibidagi CO, CO₂, SO₂, qo'rg'oshin - rux va mishyak changi va boshqalar atmosferani ifloslantiradi. Hozirgi zamon texnikasi ana shu zararli aralashma va changlarni to'la ravishda tutib qolib, ularni foydali ishlar uchun qo'llashga qurbi etadi. Yaratilgan adsorbsion kolonnalar, filtr va turli yutgichlar havoni toza saqlash imkonini yaratadi. O'n birinchi besh yillikda zararli gazlarni tutib qolish 15% atrofida ko'paydi va hozirgi kunda uchib atmosferaga ko'tarilayotgan gazlarning 70% dan ko'pi ushlab qolinmoqda. Bundan buyon atmosferani ifdoslantiruvchi chiqindi gazlar miqdori yil sayin kamayib boraveradi. Tashkil etilgan yangi boshqarma, laboratoriya va bo'limlar atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-koordinatsiya ishlari, loyiha va shu kabi boshqa muhim vazifalarni amalga oshirish bilan shug'ullanadilar. Har bir korxona va birlashma o'zida shunday ishlar

bilan shug'ullanuvchi bo'lim yoki GURUXga ega bo'lishi kerak.

Respublikamizda ham atrof-muhitni muhofaza qilish borasida diqqatga sazovor ishlari qilinyapti. Tabiatni muhofaza qilish viloyat bo'limlari ko'p sohalar bo'yicha nazorat ishlarini olib bormoqda. Oqava suvlardan metallarni ajratib oluvchi yangi ionitlar sintez qilinmoqda, sorbentlar sinovlardan o'tayapti, yangi ustakovkalar ishga solinayapti. Oqava suvlardan xrom va ruxni ajratib olish sxemasi ishlab chiqildi. "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasida kelajakda oqava suvlar hajmi sutkasida 4000 m² ga etadi. Bunday katta miqdordagi suvni tozalab, undan qayta foydalanish va ajratib olinuvchi mahsulotlardan foydalanish ko'zda utiladi. Bu yangilik hozirgi kunlarda amalga oshirilmoqda.

Sement, ohaktosh, g'isht va boshqa qurilish materillari korxonalarida ham pechlardan ajralib chiqadigan gaz hamda changlarni atmosferaga chiqarmaslik bo'yicha diqqatga sazovor ishlari qilinmoqda.

CHiqitsiz texnologiya deganda korxonada ishlab chiqarilayotgan ma'sulotlarning hammasi xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llaniladi, dejan ma'noni anglamoq kerak bo'ladi. Reaktorlardan ajralgan chiqindi ham qayta

ishlanib, kerakli mahsulotga aylantirilganda texnologiya chiqindisiz hisoblanadi. Qo'qon moy kombinatida ilgari chiqindilar hisoblangan danak, uzum va pomidor urug'lardan endi kosmetika hamda farmatsevtika uchun qimmatli mahsulotlar olinayotganligini qayd qilmoq kerak. Danak po'stloqlari motorlarni tozalashda ishlatilmoxda.

Neftni qayta ishslash korxonalarida ham chiqitsiz texnologiya amalga oshirilgan. Neftdan olinuvchi barcha mahsulotlar xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llanilayotganligi hammamizga ma'lum. Neftning chiqindisi bo'lgan asfalt va bitumlar hamhozir o'ta zarur mahsulotga aylandi.

Olmaliq, Navoiy, CHirchiqdagi kimyo korxonalarida, ayniqsa, ekologiya masalalariga katta ahamiyat berilmoqda. Kelajakda nafaqat mazkur korxonalar, balki respublikamizdagi barcha zavodlar, ishlab chiqarish birlashmalari, kattayu-kichik firmalar chiqindisiz texnologiyaga o'tkaziladi, ishlab chiqayotgan mahsulot va buyumlar ham jahon andozalari darajasida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 24 yanvarida qabul qilgan "Ozon qatlagini himoya qilish sohasidagi shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori Vena konvensiyasi va Montreal protokolini qullab-quvvatlovchi davlat xujjati bo'lib, mamlakatimiz ekologiyasini yaxshilashga qaratilgan muhim chora-tadbirlardan biri bo'ldi.

Qaytarish uchun savollar

- 1.Ekologik muammolar qanday masalalarni o'z ichiga oladi?
- 2.Atmosferada kanday reaksiyalar amalga oshadi?
3. Ozonning kamayishiga kanday omilar sabab bo'lmoqda?
- 4.Oqava suvlar qanday yo'llar bilan tozalanadi ?
5. Atmosferada yuzaga keladigan almashinuv reaksiyalariga misollar keltiring ?
6. "Ozon" hosil bo'lish reaksiyasi va uning ahamiyatini aytib bering ?
7. Atmosferadagi oltingugurt brikmalarini hosil bo'lish va ularning xususiyatlariga izox bering ?
8. Azot oksidlarining atmosfera kimyosi va avtomobillardan hosil bo'ladigan (ajraladigan) gazlarga izox bering ?

9. Oqava suvlar qanday moddalar bilan ifloslanishi jarayonini aytib bering ?

10. Kimyo korxonalaridan osmonga ko‘tariladigan zaxarli gazlar ularning zarari to‘g‘risida aytib bering ?

Tayanch so‘z va iboralar.

Iflos chiqindilar, kislород atomlarining dissotsilanishi, fotodissotsiya, almashinuv reaksiyalari, ozon, ozon qalqoni, oltingugurt brikmalari, “nordon yomg‘ir”, fotokimyoviy smog, to‘lqinli fotonlar, uglerod monooksidi, oqava suvlar, kimyoviy va texnik tozalash, chiqindisiz texnologiya, absorbsion gomogen.

3.2. “Elementlarning umumiyl xossalari va ularning asosiy birikmalari. s-elementlar” mavzusining mazmun va mohiyati.

Mavzu rejası

1. Ishqoriy metallarning elektron formulasi, tabiatda uchrashi, olinish usullari.
2. Ishqoriy metallarning fizik va kimyoviy xossalari, birikmalari, gidridlari, ishlatilishi.
3. Sodaning olinish usulari, ishlatilish va ahamiyati

1 Birinchi gurux asosiy guruxchasi elementlarining umumiyl xossalari.

Birinchi gurux asosiy guruxchasi elementlari ishqoriy metallar deb atalib, ular Li,Na, K,Rb,Cs va Fr elementlaridan iborat. Bu elementlarning tashqi elektron qavatlariida s^1 elektronlari mavjud. Shuning uchun bu elementlar kimyoviy reaksiya paytida s^1 elektronni osongina yo‘qotib, kuchli qaytaruvchi xossasini namoyon qiladi va doimo +1 ga teng oksidlanish darajasiga ega bo’ladi. Bu elementlarda Li dan Fr ga tomon atom radiuslari kattalashadi, ammo ion zaryadlari o’zgarmaydi. Shuning uchun bu elementlarning metallik va qaytaruvchilik xossalari ortib boradi. Bu elementlarni ishqoriy metallar deb atalishiga sabab, ular suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishib, asos va vodorod hosil qiladi. Hosil bo’lgan birikmalari esa kuchli ishqorlardir.

Tabiatda uchrashi. Ishqoriy metallar sof holda tabiatda uchramaydi. Ko’pgina elementlarga o’xshab, ular alyumosilikatlar tarkibida uchraydi. Litiyning

eng muhim minerallari lepidolit $K_2O \cdot 2Li_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2 \cdot Fe(OH)_2$, spodumen $Li_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 2SiO_2$, ambligonit $LiAlPO_4F$ yoki $LiAlPO_4OH$ va boshqalar. Natriy minerallari tosh tuz $NaCl$, glabuer tuzi $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$ kriolit $Na_3 AlF_6$, bura $Na_2B_4O_7 \cdot 10H_2O$, silvinit $NaCl \cdot KCl$, chili selitrasni $NaNO_3$, dala shpati $Na_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ holida uchraydi. Kaliy minerallari silvinit $NaCl \cdot KCl$, dala shpati $K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$, silvin KCl , karnallit $KCl \cdot MgCl_2 \cdot 6H_2O$ va o'simlik kuli tarkibida K_2CO_3 holida uchraydi.


Rubidiy elementi tabiatda keng tarqalgan bo'lishiga qaramay, mustaqil minerallar hosil qilmaydi. Tabiatda u kaliyning yo'ldoshi hisoblanib, turli tog' jinslari ayniqsa, alyumosilikatlar tarkibida uchraydi. Seziy elementi rubidiyga qaraganda ancha siyrak element hisoblanadi. Tarkibida eng ko'p seziy bo'lgan mineral - polusit $4Cs_2O \cdot 4Al_2O_3 \cdot 18SiO_2 \cdot 2H_2O$ dir.

Fransiy elementi minerallari tabiatda uchramaydi, uning izotoplari sun'iy ravishda hosil qilinadi.


Olinishi. Tarkibida bu elementlar bo'lgan minerallar birinchi navbatda boyitiladi. Boyitilgan rudalar tarkibidagi elementlarni eritmaga yoki qayta ishlash uchun qulay holga aylantirilib quyidagi usullar bilan olinadi:




Hosil qilingan Li_2SO_4 ni karbonatlar holida cho'ktiriladi:



Hosil qilingan karbonatlar HSI ishtirokida eritmaga o'tkaziladi.




Hosil qilingan $LiCl$ ni 1:1 nisbatda KCl tuzi bilan aralashtirib suyuqlantiriladi va elektroliz qilinadi. Bunda anod sifatida grafitdan, katod sifatida temir elektrodlardan foydalaniladi. Katodda Li metali qaytariladi: $Li^+ + e = Li^0$



Hosil qilingan LiOH eritmasi NaCl ta'sirida LiCl tuziga aylantiriladi, eritmani bug'latib, qolgan LiCl tuzini suyuqlantirib elektroliz qilinadi.

3. Toza holdagi litiy metali litiy oksidi Li_2O ni kremniy yoki alyuminiy bilan qaytarib olinadi:




Natriy metali asosan ikki xil usul bilan olinadi:

1. Natriy gidroksidni suyuqlantirib elektroliz qilinadi. Bunda katod temirdan, anod esa nikeldan yasaladi. Katodda Na metali qaytariladi:



Anodda esa OH^- ionlari oksidlanib, kislorod ajralib chiqadi:




Bu usul toza holda natriy olinishi va jarayonning past temperatura-da olib borilishi kabi afzalliklarga ega. Lekin xom ashyo sifatidagi NaOH ning tannarxi birmuncha yuqoriligini eslatib o'tish lozim.


2. NaCl tuzini suyuqlantirib, elektroliz qilinadi. Bu usulda xomashyo sifatida toza holdagi NaCl ishlatsa, NaCl bilan Na metallning suyuqlanish temperaturalari bir-biriga yaqin bo'lgani uchun natriy metalini sof holda ajratib olish anchagina noqulaydir. Bundan tashqari, natriyning to'yigan bug' bosimi taxminan havoning to'yigan bug' bosimiga yaqin qiymatga ega, bu esa natriyning ko'p yo'qotilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun NaCl tuziga NaF, KCl yoki CaCl_2 tuzlari aralashtirilib, uning suyuqlanish temperaturasini kamaytirib, elektroliz qilinadi. Katodda Na va K metallari qaytariladi. Bu aralashmani haydab Na ajratib olinadi. Anodda esa Cl^- ioni oksidlanadi:



Yuqorida ko'rib o'tilgan usullarni kaliy metalini olish uchun qo'llash mumkin emas. Chunki kaliyning reaksiyaga kirishish xususiyati kuchli, ya'ni ajralib chiqayotgan kislorod bilan tezda oksidlanib ketadi. Shuning uchun **kaliyni olishda quyidagi usullardan foydalaniladi**:

1. Suyuqlantirilgan KON yoki KCl eritmasidan kaliyni natriy bilan siqib chiqariladi:






2.KCl va NaCl tuzlari aralashmasini suyuqlantirib elektroliz qilinadi. Katodda qaytarilgan Na va K aralashmalarini haydab kaliy ajratib olinadi.

3.KCl tuzini vakuumda alyuminiy yoki kremniy bilan qaytarib olinadi.





Rubidiy va seziyni olishning eng qulay usullari quyidagilardan iborat:

1.Xlorli birikmalarini qizdirib, vakuumda Ca bilan qaytariladi:



2. Karbonatlari yoki xloridlari yuqori temperaturada Mq yoki CaCl₂ ishtirokida qaytariladi:



Li, Na,K metallari sanoatda germetik berkitilgan temir idishlarda, laboratoriyada esa kerosinda saqlanadi. Rb va Cs metallari payvandlangan shisha ampulalarda saqlanadi.


2. Xossalari.

Li,Na,K,Rb elementlari oq kumush rangli yaltiroq,Cs sarg'ish tilla rangli, oson suyuqlanadigan metallardir. Havoda o'z-o'zidan oksidlanadi. Oksidlanish nam havoda shiddatli ro'y beradi. Bu elementlar issiqlikni va elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Kaliy va rubidiy kuchsiz radioaktiv xossasini namoyon qiladi. Fransiyning ko'p yashaydigan izotoplari yo'q. Tabiatda uchraydigan -izotopining emirilish davri 21 minutni tashkil etadi. Hamma ishqoriy metallar kuchli qaytaruvchilardir. Ularning standart elektrod potensiallari manfiy bo'lib, katta qiymatga ega. Ishqoriy metallar hosil qilgan molekulalarda qo'pincha ion bog'lanish mavjud. Bu bog'lanish litiydan seziyga tomon GURUX bo'yicha kamayib boradi. Suyuqlantirilganda elementlar ionlashgan holatda bo'lib, elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Ishqoriy metallar ionlari kompleks birikmalar hosil qilmaydi, chunki ularning zaryadlari kichik, radiuslari esa kattadir. Bundan tashqari ularning tashqi elektron qavatlarida d-elektronlar mavjud emas.


Birikmaları. Ishqoriy metallar vodorod bilan qizdirilganda birikib gidridlar hosil qiladi:



Bu gidridlar ionli panjaraga ega bo'lgan qattiq kristall moddalardir. Gidridlarda vodorod ioni N^- anion rolini bajaradi. Buni suyuqlantirilgan yoki ammiakli eritmalarini elektroliz qilish natijasida vodorod molekulasi anodda hosil bo'lishi bilan isbotlash mumkin. Gidridlarning termik barqarorligi LiH dan CsH ga qarab gurux bo'yicha kamayib boradi. Ishqoriy metallarning gidridlari kuchli qaytaruvchilardir. Suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishib vodorodni siqib chiqaradi:




Qizdirilganda gidridlar SO_2 bilan birikib, organik birikmalar hosil qiladi:



Ishqoriy metallar gidridlarining reaksiyaga kirish xususiyati LiH dan CsH ga o'tgan sari ortib boradi. Hamma ishqoriy metallar kislorod bilan oson reaksiyaga kirishadi. Ortiqcha miqdorda kislorod ishtirokida litiy Li_2O va qisman Li_2O_2 hosil qiladi, natriy esa Na_2O va Na_2O_2 , K, Al, Cs lar esa E_2O va EO_2 tarkibli oksid va qo'sh peroksidlar hosil qiladi.

Litiy va natriy oksidlari rangsiz, kaliy va rubidiy oksidlari sariq, seziy oksidi esa qizg'ish tusli moddalardir. Bu metallarning peroksidlari diamagnit O_2^- ioniga, qo'sh peroksidlari esa paramagnit O_2 ioniga ega bo'lib, neytral molekulidan bog'lanish energiyasi bilan qisman farq qiladi. Peroksidlar va qo'sh peroksidlar kuchli oksidlovchilardir. Ishqoriy metallarning peroksidlari vodorod peroksidning tuzlari bo'lib, suvda erishi natijasida to'liq gidrolizlanadi:




Hosil bo'lgan H_2O_2 ishqoriy muhitda tezda suvga va kislorodga parchalanib ketadi. Ishqoriy metallarning qo'sh peroksidlariga suv ta'sir ettirilsa, kislorod ajralib chiqadi:



Ishqoriy metallarning oksidlari suv bilan yaxshi reaksiyaga kirishib, gidroksidlар hosil qiladi:



Ishqoriy metallarning gidroksidlari rangsiz, suvda yaxshi eriydigan, oson suyuqlanuvchi kristall moddalardir. Sanoatda eng ko'p ishlatiladigan ishqorlar asosan o'yuvchi natriy (NaOH), o'yuvchi kaliy(KON)dir. Bu ishqorlar kuchli kristallgidratlar bo'lgani uchun havodagi namni o'ziga oson biriktirib oladi. Suyuqlantirilgan ishqorlar chinni va shishalarni erita oladi:



O'yuvchi natriy texnikada asosan NaCl eritmasini elektroliz qilish usuli bilan olinadi. Bunda katod sifatida temirdan, anod sifatida grafitdan yasalgan elektrodlar ishlatiladi.


Katodda suv qaytariladi:




Katodda qaytarilmagan Na^+ ionlari bilan OH^- birikib NaOH ni hosil qiladi. Bu NaOH uncha toza bo'lmaydi, chunki uning tarkibida elektrolizga uchramagan NaCl bo'ladi. Toza holdagi NaOH olish uchun, katod sifatida simobdan foydalaniladi. U holda katodda vodorod ajralib chiqmay, natriy ioni qaytariladi:



Ajralib chiqqan Na metalini simob o'zida eritib amalgama hosil qiladi. Amalgamani suvli idishlarga solinganda, tarkibidagi Na erib, NaOH hosil qiladi. Ba'zi hollarda NaOH ni, soda eritmasini ohakli suv bilan ishlov berish usuli orqali olish mumkin:




Hamma ishqoriy metallar kislotalar bilan reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladi va vodorodni siqib chiqara oladi:




Ishqoriy metallar ozgina qizdirilganda galogenlar bilan birikib galogenidlar hosil qiladi:



Metallarga oltingugurit ta'sir ettirib yoki ishqorlarni vodorod sulfid bilan neytrallab ishqoriy metallarning sulfidlari hosil qilinadi: $2\text{E} + \text{S} = \text{E}_2\text{S}$





Ishqoriy metallardan faqatgina Li oddiy sharoitda azot bilan birikib nitrid hosil qiladi:



Boshqa ishqoriy metallarning nitridlari yuqori temperaturada va elektr uchqunlari ta'sirida hosil qilinib, ular oddiy sharoitda beqaror bo'lgan gazlardir. Ishqoriy metallar ko'p asosli kislotalar qoldiqlari bilan o'rta E_2SO_3 ; E_2SO_3 ; E_2SO_4 , E_3PO_4 va nordon ENSO_3 , ENSO_3 , EHSO_4 , EN_2RO_4 , E_2NRO_4 , ENS tuzlar hosil qiladi. Bu elementlarning nordon tuzlar hosil qilishi va ularning termik barqarorligi gurux bo'yicha Li dan Cs ga qarab ortib boradi. Ishqoriy metallarning tuzlari asosan suvda yaxshi eriydigan moddalardir.

3.Xalq xo'jaligining ko'pgina sohalarida keng qo'llaniluvchi soda hozirgi paytda quyidagi uch usul bilan olinadi:

1.Leblan usuli. Bu usulda osh tuziga konsentrangan sulfat kislota ta'sir ettirib, natriy sulfat hosil qilinadi. Hosil qilingan natriy sulfat ohaktosh va ko'mir bilan aralashtirib pechda qizdiriladi, ya'ni $2\text{NaCl} + \text{H}_2\text{SO}_4_{\text{kons}} = \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{HCl}$




2.Solvey usuli. Bu usulda osh tuzi ammiak va karbonat angidrid bilan to'yintirib NaHCO_3 cho'kmaga tushiriladi.



CHo'kmani qizdirib soda ajratib olinadi.



3.Elektrolitik usul. Osh tuzi eritmasini elektroliz qiliz natijasida hosil bo'lgan o'yuvchi natriyni karbonat angidrid ta'sirida cho'ktirib, so'ngra uni qizdirib soda olinadi.



Hosil bo'lgan SO_2 yana qayta ishlatiladi.

Ishlatilishi. Ishqoriy metallar va ularning birikmali organik moddalarni sintez qilishda, alyuminiy ishlab chiqarish, shisha va keramik moddalar olish, sun'iy tola ishlab chiqarish va mineral o'g'itlar olishda ishlatiladi. Vatanimizda qurilayotgan soda zavodi (Qoraqalpog'iston) undan keng soxalarda foydalanishga imkon beradi.

Nazorat savollar:

1. Ishqoriy metallarning tashqi elektron formulasi asosida ularning qanday xossalari namoyon bo'ladi?
2. Ishkoriy metallarni qanday usullar bilan olinadi?
3. Bu elementlarning fizik va kimyoviy xossalari tushuntiring. Oksidlari, gidroksidlari, peroksidlari.
4. Soda qanday usullar bilan olinadi ?
5. Natriy metalli qanday usullar bilan olinadi ?
6. Kaliy metallini olishda qanday usullardan foydalaniladi ?
7. Ishqoriy metallar qanday brikmalar hosil qiladi ?
8. O'yuvchi natriy texnikada qanday usul bilan olinadi ?
9. Ishqoriy metallarning gidrooksidlari qanday xossalarga ega ?
10. Sodaning hozirgi paytda olinish usullarini izoxlang.

Tayanch so'z va iboralar:

Ishqoriy metallar, S¹- elektronlar, lepidolit, spodumen, amblitonit, silvinit, izotopning emirilish davri, gidridlar, peroksidlar, beqaror gazlar, Leblan usuli, Solvey, elektrolitik usullar, metallarning nitridlari.


3.3."Elektroliz jarayonlari" mavzusining mazmun va mohiyati.

Mavzu rejasi

1. Kimyoviy moddalar suyuqlanmalari va suvli eritmalarining elektroliz jarayonlari.
2. Metallar kuchlanishlar qatori asosida katorra va anorra ajralib chiqadigan moddalarni tushuntirish.
3. Faradey qonunlari va undan kelib chiqadigan xulosalar.


O'zi boruvchi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari galvanik elementlar, ya'ni elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi elektrokimyoviy uskunalar yaratishda qo'llaniladi. Ikkinci tomondan elektr toki yordamida o'zi bormaydigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini ham amalga oshirsa bo'ladi, bunga misol qilib suyuqlantirilgan kaliy xloridni u tarkib topgan elementlarga

ajralishini ko'rsatish mumkin:



Tashqi elektr manbai yordamida amalga oshiriluvchi bunday reaksiyalar elektroliz jarayoni deyiladi. Jarayon elektrolitik yacheyka(elektrolizyor)larda olib boriladi.


Elektroliz jarayoni ko'pincha suyuqlantirilgan yoki elektrolit eritmalar orqali elektr toki o'tkazilib amalga oshiriladi. Ikkinci misol tariqasida magniy xlorid suyuqlantirilgan eritmasining elektrolizini ko'rib chiqamiz. Magniy xloridning suyuqlantirilgan eritmasidan tok o'tayotganda magniy kationlari elektr maydoni ta'sirida manfiy elektrod katod tomon siljiydi. Bunda tashqi zanjir orqali kelayotgan elektronlar bilan birikib, ular qaytariladi:




Xlor anionlari musbat elektrod anodjga siljiydi va ortiqcha elektronlarni yo'qotib oksidlanadi. Bunda, dastlabki elektrokimyoviy bosqichda xlor ionlari oksidlanadi:



bunda xlor atomlari birikib molekulaga aylanadi:



Elektrodlarda boradigan protsesslar tenglamalarini qo'shib, MgCl_2 suyuqlanmasi elektrolizi uchun oksidlanish-qaytarilish reaksiyasining umumiy tenglamasini hosil qilamiz:



Ushbu reaksiya o'z-o'zidan bormaydi, uni o'tkazish uchun zarur bo'lган elektr energiyasi tashqi manbadan olinadi.



Elektrolizda katod manfiy, anod esa musbat zaryadlanadi, elektrodlar zaryadi belgilari galvanik element ishidagiga teskari bo'ladi.

